



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



MIRZO ULUG'BEK HAYOTI VA ILMIY-MA'RIFIY MEROSINI O'RGANISH

Abduqayumova Saodatxon Mansurjon qizi

*Andijon davlat chet tillari
instituti talabasi*

ANNOTASIYA: *Ushbu maqolada buyuk bobomiz Mirzo Ulug'bek davlat arbobi , o'z davrining buyuk astronomi geografigi, tarixchisi shoh va sarkarda shu bilan ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan hukmdor hisoblanadi.*

АННОТАЦИЯ: *В этой статье наш прадед Мирзо Улугбек был государственным деятелем великим астрономом географом историком королем и полководцем своего времени и в то же время он был авторитетной фигурой внесшей вклад в развитие науки*

ABSTRACT: *In this article, our great grandfather Mirzo Ulug'bek was a statesman, a great astronomer, historian, geographer, king and general of his time, and at the same time, he was an authoritative figure who contributed to the development of science.*

Kalit so'zlar; *Mirzo Ulug'bekni ilmiy merosi, tarixchi, astronom, geografik va rasadxona.*

Ключевые слова; *научное наследие Мирзо Улугбека историка, астронома, географа и обсерватории*

Keyword; *scientific heritage of Mirzo Ulughbek, historian, astronomer, geographer and observatory*

"Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avlyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"

Shavkat Mirziyoyev

Mirzo Ulug'bek- Temuriylar davlatining hukmdori, buyuk astronom va matematik. Otasi Shohruh Mirzo davrida Movarounnahr hokimi va otasi vafot etgach butun Temuriylar imperiyasi sulton bo'ldi.

Mirzo Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay ibn Shohruh ibn Temur Ulug'bek Ko'ragoni) Temuriylar davlatining hukmdori, davlat arbobi, astronom (yulduzshunos) va tarix va matematikchi. Ulug'bek trigonometriya bilan bog'liq matematika sohasidagi ishlari, shuningdek, san'atga qiziqishlar bilan boshqalardan ajralib turadi. besh tilni ya'ni arab, fors, mo'g'ul va oz miqdorda xitoy tillarini bilgan. Ulug'bek hukmronligi davrida (avval hokim, keyin to'g'ridan-to'g'ri) uning e'tibori va hokimligi tufayli temuriylar uyg'onish davrining madaniy cho'qqisiga erishdi.

U 1424-1429-yillarda Samarqandda Ulug'bek rasadxonasini qurdirtdi. Olimlar nazarida bu rasadxona o'sha davrda islom olami va Marzakiy Osiyoning en yirik rasadxona



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



bo'lgan. Ulug'bek keyinchalik ko'plab olimlar tomonidan 15 asrning eng buyuk astronomi sifatida tan olingan. Samarqandda va Buxoroda Ulug'bek madrasasini (1417-1420) qurdirib, ushbu shaharlarni O'rta Osiyoning madaniy ilmiy markazlariga aylantirdi

Ulug'bek nomi turkiycha bo'lib, "buyuk" yoki "oqsoqol bek" degan ma'noni anglatadi. Ko'ragon unvoni mo'g'ulcha "kuregen" so'zining forscha varianti bo'lib, "xonning kuyovi" ma'nosini anglatadi.

Ulug'bek o'ta bilimli va qattiqqo'l ustozlar tarbiyasini olgan. Ulug'bek yoshligidan ilm o'rganishdan tashqari chavandozlik, qilichbozlik, kamon otish, suzish kabi jismoniy mashqalar bilan faol shug'ullangan. U qat'iy kundalik tartibga o'rgatilgan, diniy va dunyoviy fanlarni chuqur o'zlashtirgan.

Mirzo Ulug'bek kuchli tahliliy tafakkur sohibi bo'lib, murakkab matematik amallarni dilida bajara olgan. Ulug'bek ot ustida quyoshning balandligi vaqt birligida o'lchab, burchagini trigonometrik usulda yoddan hisoblab chiqqan ekan. Ulug'bek murakkab matematik tenglamalarni juda tez o'z usulida epchilik bilan yecha olardi. U oliy madrasada talabalar uchun o'qigan tabiiy fanlarga oid ma'ruzalarida trigonometrik va sferik astronomiyaga oid hisob- kitoblarni ham yoddan hisoblay olish qobiliyatini ko'rsatgan. Bu mashg'ulotlarda ulug'bek murakkab trigonometrik va algebrik masalalarni yechishning xilma-xil usullarini yaxshi bilgani haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ayniqsa, astronomik observatoriyada olib boriladigan hisob-kitob larda bu qobiliyati unga juda qo'l kelgan. Hozirgi zamon fani nuqtayi nazaridan ham shu hisob- kitoblar o'zining aniqligi bilan dunyo olimlarini hayratga solmoqda. Ulug'bek uzoq yillar davomida olib brogan ilmiy izlanishlari natijasida matematika, astronomiya, tarixga oid asarlar yaratgan. Biroq bizgacha mutafakkirning to'rt asarlari; "Zid jaddi Ko'ragoniy" (Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvallari), matematikaga oid "Bir Daraja sinusini aniqlash haqida risola" astronomiyaga doir "Risolayi Ulug'bek" va "Tarixi arba' ulus" (To'rt ulus tarixi) yetib kelgan.

1445-yili yozilgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari alomani dunyoga kelgan. Dastlabki yulduzlar jadvali Ptolemeyga (avf.170) mansub bo'lib, milodning 2 asrida Iskandiya shahrida tuzilgan. Undan sakkiz yuz yil keyin Sheroozda Abdurahmon So'fiyning (901-986) "Turg'un yulduzlar suratlari" nomli jadvali tuzilgan. Bu jadvalda 1017 ta yulduz ko'rsatgan. 1437-yili tuzilgan ulug'bek jadvalida esa 1018 ta yulduzlarning aniq koordinatorlarni aniqlashda eng ishonchli manba bo'lib kelgan.

Ta'kidlanganidek, Ulug'bekning ilmiy-ma'rifiy merosini bugungi kunda ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda. Alloma kashf qilgan kuzatish astronomiyasining tadqiqot mrtodlaridan hozirgi zamon astronomiya fani muhim asos sifatida foydalanmoqda. Uning rahbarligida ishlab chiqilgan astronomic jadvallar Yevropada yangi davr sivilizatsiyasi uchun g'oyat ahamiyatli tayanch bo'lib xizmat qiladi. Yaqin- yaqingacha okeanlar o'sha sayohatlar chiqqan kemalar ham, bepoyon sahrolarni bosib o'tuvchi karvonlar ham Ulug'bekning jadvallaridan vaqt va geografik koordinatalarni aniqlashda keng foydalangan. Hukmronlik davrida o'z ztrofidagi salohiyatli ilm ahlini to'plangan. Ularning boshini biriktirib, astronomiya, matematika, mantiq, tarix, falsafa va boshqa fanlar bo'yicha



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



yirik ilmiy maktab, hozirgi zamon tili bilan ifodalanganda, akademiya faoliyatga rahbarlik qilgan. Bu maktabda Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Ali Qushchi kabi taniqli olimlar ta'lim bergan. Shuningdek, u yerda Amir Temur davrida faoliyat olib brogan olimlarning falsafa, mantiq, tarix, geografiya va boshqa sohalarga oid ilmiy an'analari davom ettirgan.

Ayni paytda Ulug'bek turkey xalqlarning ma'naviy merosini o'rganish, qimmatbaho yozma yodgorlilarni qayta ko'chirib, xalq orasida targ'ib qilish, tarixiy xotirani tiklash masalalariga jiddiy e'tibor qaratgan. Madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, maqbaralar qurdirgan. Samarqandning muhtasham Registon maydoniga Ulug'bek madrasasi ana shunday xayrli va ezgu sa'y- harakatlarning porloq natijalardan biridir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi-muallif “ Qodirxon Mahmudov
- 2.Mirzo Ulug'bekning tarixiy manbalari
- 3.O'zbekistondagi islim svilizatsiyadagi markazi

